



INGLIZ TILI FANI O'QITUVCHILARINING KLASTERLI KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LIDAGI VAZIFALAR

Ataboyeva Muyassar Baxromovna

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Chirchiq filiali, Ijtimoiy fanlar va xorijiy tillar
kafedrası*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining intellektual salohiyatini shakllantirishda klasterli yondashuvlar yoritib berilgan bo'lib bo'lajak ingliz tili o'qituvchilalarida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning ahamiyatli yo'llari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, o'qituvchilarda intellektual ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beruvchi kommunikativ treninglardan namunalar keltirilgan. Bugungi kun jamiyatimizda chet tillarni ayniqsa ingliz tilini o'qitish kundan kun rivojlanib bormoqda. Ingliz tilini o'qitish protsessida ta'lim metodlari mexanizmi muhim rol o'ynaydi. Samarali metod kompetentlarini dars mashg'ulotlari davomida qo'llash bu har bir professor-o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan intellektual yondashish va izlanish mahsuli sifatida baholanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning funksional serunumligi tilni o'qitish jarayonidagi integratsional bog'lanish protsessini mukammallashtiradi.*

Kalit so'zlari: *qobiliyat, o'qituvchini qobiliyatini rivojlantirish, —train, —training intellektual salohiyat treninglar. zamonaviy pedagogik texnologiyalar, funksional protsess, intellektual aspekt, kasbiy samaradorlik, metod, usul, tamoyillar*

ABSTRACT: *In our society today, the teaching of foreign languages, especially English, is developing day by day. The mechanism of teaching methods plays an important role in the process of teaching English. The use of effective*



method competencies in the classroom is valued as a product of the intellectual approach and research of each faculty member to their profession. The functional serenity of modern ped- technologies improves the process of integrated communication in the process of language teaching.

Keywords: *modern ped-technologies, functional process, intellectual aspect, professional efficiency, methods, ways, approaches*

АННОТАЦИЯ: *Сегодня в нашем обществе обучение иностранным языкам, особенно английскому, развивается день ото дня. Механизм методики обучения играет важную роль в процессе обучения английскому языку. Использование эффективных методов в классе ценится как результат интеллектуального подхода и исследования каждого преподавателя в своей профессии.*

Функциональная безмятежность современных пед-технологий улучшает процесс интегрированного общения в процессе обучения языку.

Ключевые слова: *современные пед-технологии, функциональный процесс, интеллектуальный аспект, профессиональная эффективность, метод, принцип, способ*

Bugungi kunda kasbiy mahoratli pedagoglarni jumladan, ingliz tili fani o'qituvchilarini tayyorlash, kompetensiyaviy yondashuvlar sharoitida ularga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash, kasbiy va ijtimoiy-psixologik moslashuvini ta'minlash muhim hisoblanadi. Tahlillar, bugungi kunda ingliz tili o'qituvchisining klasterli kompetensiyalarini shakllantirishda qator muammolar borligini ko'rsatadi, ya'ni: ingliz tili fanidan o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi, ta'limning mazmuni, metodi, zamonaviy vositalarini bilishda talab etiladigan bilim va ko'nikmalarining talab darajasida emasligi; tibbiyot yo'nalishidagi OTMlarida ingliz tili fani o'quv dasturi va rejasidagi mavzularni



integrasiyalashning bu faoliyatni tashkil etish jarayonida hayotiy ko'nikmalarni egallashga imkon beruvchi asosiy turlari yetarlicha amalga oshirilmaganligi va boshqalar.

OTMlari o'quv jarayonining tahlili, ingliz tili o'qituvchilari bilan o'tkazilgan suhbatlar hamda anketa so'rovlari natijasi shuni ko'rsatdiki, hozirgi ularning klasterli kompetensiyalarini shakllantirishda yana boshqa bir qator muammolar ham mavjud: ingliz tili o'qituvchilarining klasterli kompetensiyalarini shakllantirishda ularning bilim berish hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malaka va ko'nikmalarining yetishmasligi; hozirda fan-texnika taraqqiyotining, ishlab chiqarishning tez shakllanayotganligi sababli axborotlarning ko'payib borayotganligi va ularni talabalarga yetkazish uchun vaqtning chegaralanganligi; ingliz tili o'qituvchilari uchun o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha yangi avlod o'quv-metodik adabiyotlarining yetishmasligi; o'qituvchilarning klasterli kompetensiyalarini shakllantirishda o'quv jarayonini samarali tashkil etish shakllari, usullari va vositalar innovasion uslublarda zaruriy darajada qo'llanilmayotganligi va boshqalar.

Shunday ekan, ingliz tili fani o'qituvchisining klasterli kompetensiyalarini shakllantirish, OTMlarining asosiy vazifalaridan biri bo'lmog'i lozim. Chunki, ushbu muammolarni bartaraf etish, ingliz tili o'qituvchilariga, ularning pedagogik qobiliyatiga, o'quv jarayonini samarali tashkil eta olishlariga bog'liq.

Shuning uchun kompetensiyaviy yondashuv asosida ingliz tili o'qituvchisining klasterli kompetensiyalarini, ya'ni: nazariy va amaliy bilimlarga egalik; o'qitishning zamonaviy metod, shakl va vositalarini tanlay olish va ulardan amaliyotda samarali foydalana olish; darsni ryejalashtirish va maqsadlarini aniqlashtira olish; o'quv materialini mazmunini tanlash va dars strukturasi moslay olish; bosqichlararo bog'lanishni amalga oshira olish; analitik fikrlay olish; dars



natijalarini oldindan ko'ra olish jarayonini loyihalash va uni amalga oshirishga yetarli e'tibor qaratish lozim.

Shu bilan bir qatorda, bu jarayonga ilmiy-amaliy jihatdan yondashish; ulardan foydalanish masalalariga ingliz tili o'qituvchilari e'tiborini kuchaytirish; ularni xolisona rag'batlantirish usullarini takomillashtirish; ularni imkon darajasida ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish; zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ularning samarali kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhimdir. Demak, ingliz tili fani o'qituvchisining klasterli kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb muammolardan biridir.

Ingliz tili o'qituvchisining klasterli kompetensiyalarini shakllantirishda dastlab, ko'zlangan maqsadlarga erishishda istiqbol maqsad va imkoniyatlarni o'qituvchilar manfaati bilan uyg'unlashtirish, uni zamonaviy o'zgarishlarga moslab borish, istiqbolli dasturlarni ishlab chiqish hamda ta'lim jarayoniga joriy qilish muhim. Bu o'z navbatida, maqsadga erishishda, shakllanishga ta'sir etuvchi omillarni oldindan tahlil qilish, yangi g'oyalar va ularni amalga oshirishda zaruriy kompetensiyalarni talab qiladi.

OTMlarida ingliz tili o'qituvchilarining klasterli kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar, ularda o'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, bunda fan-texnika yutuqlariga asoslangan samarali metod, shakl va vositalardan foydalanish, bu yo'nalishda bilim va kasbiy sifatlarni taqozo etadi.

Ingliz tili o'qituvchisining turli darajadagi kompetensiyalarini shakllantirishga ko'p omillar salbiy ta'sir etadi: jumladan: OTMlarining kompyuterlar va elektron vositalar bilan ta'minlanganlik darajasining pastligi; ularning Internet tarmoqlariga to'liq ulanmaganligi; ilmiy-uslubiy manbalarning yetarli emasligi (elektron ko'llanma, testlar); o'qituvchilarning zamonaviy kompyuter texnikasi bo'yicha malakasining yetishmasligi va boshqalar. Bunday



muammolarni bartaraf etish uchun: Internet tarmog'i orqali anjuman va seminarlar tashkil etish; OTMlarida multimedia xonalari, laboratoriyalar sonini ko'paytirish; elektron o'quv vositalaridan foydalanish soatlari mikdorini ko'paytirish; ingliz tili o'qituvchilari bilan zamonaviy axborot texnologiyalari haqida ko'proq suhbatlar olib borish zarur. Mazkur tadbirlarning o'tkazilishi, nafaqat ingliz tili o'qituvchilarining klasterli kompetensiyalarini shakllantirish sifatini oshiradi, balki ularning bilimlarining ommalashuviga ham erishiladi.

N.N.Azizxo'jayeva [17]ning ta'kidlashicha, o'qituvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishning o'ziyoq bir qancha vazifalarning bajarilishini, ya'ni ularga zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, shuningdek, mazkur jarayonni amalga oshirish uchun moddiy-texnika bazasini yaratish va mustahkamlab borish, pedagogik va axborot texnologiyalari bilan qurollantirish, malakali pedagoglar bilan ta'minlash kabi qator vazifalarni ham amalga oshirishni nazarda tutadi.

V.A.Ponomarenko [125] fikricha o'qituvchi nafaqat pedagogik tajribaga ega bo'lishi, balki zamonaviy pedagogik texnologiya vazifalari, metodlari va ulardan foydalanish yo'llarini ham mukammal bilishlari kerak. Bu texnologiyalar bilimni o'zlashtirish, unga qiziqtirish, o'ziga ishonish tuyg'ularini shakllantirish, o'quv-bilish kompetensiyalarini egallashiga ko'maklashish, yangilikka va ijodkorlikka chorlashga qaratilgan. Ko'rinib turibdiki, ingliz tili o'qituvchilarining turli darajadagi kompetensiyalarini shakllantirishning o'rni beqiyos bo'lib, bu ularga texnologiyalarning asosiy tushunchalari, vazifalari, maqsadi, metod, usul, shakl va vositalari sirlarini o'rgatadi.

V.M.Monaxov [126] o'qituvchi omonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun mazkur jarayonni avvaldan loyihalashtirib olish kerak deb ta'kidlaydi. Muallif ta'kidlashicha, bunda o'qituvchi uchun darsning texnologik xaritasini tuzib olish muhim, chunki texnologik xarita har bir mavzu,



har bir dars xususiyatidan kelib chiqqan holda tuziladi. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik xaritaning tuzilishi o'qituvchini konspekt yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining hamda o'qituvchi va talabalar faoliyatining barcha qirralari o'z aksini topadi.

Shunday qilib, OTMLarida ingliz tili o'qituvchilarining klasterli kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari muammolari va vazifalarini o'rganish, ularni tahlil qilish, shuningdek muammolarni bartaraf etish hamda vazifalarni bajarish asosida avvaldan darslarni loyihalashtirib olish mumkin. Bu kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlangan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: ingliz tili fani o'qituvchilarining klasterli kompetensiyalarini shakllantirishda zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish masalasining bugungi ahvolini tahlil qilish, ular samaradorligiga erishish tamoyillarini aniqlash; mazkur texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan metodik shakl va usullarning mazkur jarayon samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ilmiy asoslash, ulardan foydalanish asosida o'qituvchilarning mazkur kompetensiyalarini shakllantiruvchi turli metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

REFERENCES

1. Jalolov J. "Ingliz tilini o'qitish metodikasi" (darslik) T.- 2012
2. Hoshimov O'., Yoqubov I. "INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASI" (o'quv



qo'llanma) T.-., Sharq Nashriyoti. 2013

3. Рахманова, М. Қ. (2020). Таълим жараёнида ўқув мунозараларини ташкил этишда ўқитувчининг педагогик маҳорати, ижодкорлиги ва фаоллиги. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal, 4(4), 68-73.
4. Penny Ur "A Course in Language Teaching: Practice of Theory" Cambridge Teacher Training and Development. 2009
5. <https://monster-evo.ru/uz/studentu/metody-priemy-raboty-na-uroke-angliiskogo-yazyka-metody-i-priemy/>